Аннотация. В данной статье подробно рассматривается взаимосвязь между качественными показателями медицинских услуг и их экономической эффективностью. Показатели качества служат основой для оценки эффективности функционирования системы здравоохранения, степени удовлетворения потребностей пациентов и рационального использования ресурсов. Также проводится анализ статистических и практических связей между показателями качества медицинских услуг и экономическими результатами (например, снижение затрат, повышение производительности, экономия ресурсов). Исследование направлено на научное обоснование принятия стратегических решений по повышению качества медицинского обслуживания и увеличению его экономической отдачи.

Ключевые слова: качество здравоохранения, экономическая эффективность, медицинские услуги, показатели качества, использование ресурсов, системный анализ, управление здравоохранением.



KIRISH

Sog'liqni saqlash tizimi har bir davlatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida muhim o'rin tutadi. Aholi salomatligini saqlash va mustahkamlash, kasalliklarning oldini olish, tibbiy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish va ularning sifati va samaradorligini oshirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biridir. So'nggi yillarda sog'liqni saqlash sohasida olib borilayotgan islohotlar zamonaviy boshqaruv mexanizmlarini joriy etish, tibbiy xizmatlarning sifati oshirish hamda mavjud resurslardan oqilona foydalanish orqali tizimning iqtisodiy samaradorligini ta'minlashga yo'naltirilmoqda.¹

Shu nuqtai nazardan, sog'liqni saqlash xizmatlari sifati baholash ko'rsatkichlari hamda ularning iqtisodiy samaradorlik bilan o'zaro bog'liqligini chuqur o'rganish zaruriyati ortib bormoqda. Sifatli tibbiy xizmatlar nafaqat bemorlarning hayot sifati oshiradi, balki sog'liqni saqlash tizimining moliyaviy barqarorligi, xizmatlar tejamkorligi va resurslardan maqsadli foydalanish imkoniyatlarini kengaytiradi. Shu bilan birga, sifat ko'rsatkichlari yordamida tizim faoliyatining holati aniqlanib, strategik qarorlar qabul qilish uchun zarur axborot bazasi shakllanadi.

Mavzuning dolzarbligi, bir tomondan, sog'liqni saqlash sohasida xizmatlar sifatining o'sib borayotgan ahamiyati, ikkinchi tomondan esa ushbu xizmatlar asosida iqtisodiy samaradorlikni oshirish masalalarining kundan-kunga ko'proq e'tibor markaziga chiqayotganida namoyon bo'ladi. Bu esa sifat va samaradorlik o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni aniqlashga qaratilgan ilmiy izlanishlarni yanada muhim qiladi.²

Ushbu maqolada sog'liqni saqlash xizmatlarining sifat ko'rsatkichlari hamda ularning iqtisodiy natijalarga ta'siri o'rganiladi, mavjud muammolar tahlil qilinadi va samaradorlikni oshirishga qaratilgan takliflar ilgari suriladi. Shuningdek, sog'liqni saqlash tizimida sifat va iqtisodiy samaradorlik o'rtasidagi o'zaro aloqadorlikni aniqlash orqali kompleks yondashuvlar ishlab chiqishga harakat qilinadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Sog'liqni saqlash tizimining samarali faoliyat yuritishini ta'minlashda xizmat sifatining doimiy nazorati va baholanishi muhim ahamiyat kasb etadi. Ilmiy adabiyotlarda tibbiy xizmatlar sifati — bu nafaqat xizmat ko'rsatish jarayonining texnik va tashkiliy jihatlarini, balki bemorlarning ehtiyojlarini qondirish, xavfsizlik, samaradorlik, qulaylik va xizmatga osonlik bilan kirishish kabi omillarni o'z ichiga oluvchi ko'p omilli tushuncha sifatida talqin qilinadi.³

A. Donabedianning sog'liqni saqlash sifati bo'yicha ishlab chiqqan klassik modeli xizmat sifatini strukturaviy, jarayon va natijaviy komponentlarga ajratgan. Bu yondashuv bugungi kunda ham ko'plab xalqaro tadqiqotlar uchun asosiy metodologik poydevor bo'lib xizmat qilmoqda. Masalan, OECD va Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (WHO) tomonidan ishlab chiqilgan sifat ko'rsatkichlari tizimlari aynan shu modelga tayangan holda shakllangan. [5]

Xalqaro tajribada sog'liqni saqlash xizmatlari sifati bilan iqtisodiy samaradorlik o'rtasidagi bog'liqlik bo'yicha ko'plab tadqiqotlar mavjud. Jumladan, Porter (2010) o'zining "Qiymatga asoslangan sog'liqni saqlash" konsepsiyasida tibbiy xizmatlarning sifati oshirish orqali xarajatlarni kamaytirish va umumiy iqtisodiy samaradorlikka erishish mumkinligini ta'kidlagan. Bu yondashuvga ko'ra, xizmatlar sifati bemorning salomatlik natijalari bilan bevosita bog'liq bo'lib, resurslar to'g'ri taqsimlanganda sog'liqni saqlash tizimi ko'proq samaradorlikka erishadi. [9]

Mahalliy va mintaqaviy miqyosda olib borilgan tadqiqotlarda ham tibbiy xizmatlar sifati baholash mezonlarini shakllantirishga urinishlar mavjud. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi huzuridagi tibbiy-statistik markazlar tomonidan yuritilayotgan ko'rsatkichlar (yotqizish muddati, qayta murojaatlar soni, xizmatdan norozilik darajasi, mortalitet va morbiditet ko'rsatkichlari) tizim samaradorligini baholashda muhim vosita hisoblanadi. Ammo ayrim mualliflar ta'kidlaganidek, ushbu ko'rsatkichlar sifati va mazmuni ko'proq sonli axborotga asoslangan bo'lib, xizmatning chuqur sifat jihatlarini to'liq qamrab olmaydi. [1, 2, 3]

Boshqa tomondan, sog'liqni saqlash tizimida iqtisodiy samaradorlikni baholashda xarajat-ta'sir, xarajat-foyda, xarajat-samaradorlik kabi klassik iqtisodiy baholash metodlaridan foydalaniladi. Ushbu metodlar orqali xizmat sifati oshgan sari iqtisodiy natijalar qanday o'zgarishi tahlil qilinadi. Shu boisdan, zamonaviy tibbiyot iqtisodiyoti yo'nalishida sifat va samaradorlik o'rtasidagi bog'liqlikni baholovchi integrallashgan modellarga talab ortib bormoqda. [4]

Xulosa qilib aytganda, adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, sog'liqni saqlash xizmatlari sifati va iqtisodiy samaradorlik o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlash uchun kompleks va tizimli yondashuv zarur. Amaliy va nazariy

1 O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi. (2023). Milliy sog'liqni saqlash tizimida sifatni baholash indikatorlari bo'yicha metodik qo'llanma. Toshkent: SSV nashriyoti.

2 World Health Organization (WHO). (2018). Delivering quality health services: A global imperative for universal health coverage. Geneva: WHO, OECD, and The World Bank.

3 A. Donabedian (1988). The quality of care: How can it be assessed? JAMA, 260(12), 1743–1748. <https://doi.org/10.1001/jama.1988.03410120089033>



tadqiqotlarning aksariyati bu ikki omil bir-birini o'zaro to'ldirishi va sog'liqni saqlash tizimining umumiy barqarorligiga ta'sir qilishi haqida fikr bildiradi. Shu sababli, sog'liqni saqlash sohasida sifat ko'rsatkichlari va iqtisodiy natijalarni birgalikda tahlil qilish zamonaviy ilmiy izlanishlarning dolzarb yo'nalishlaridan biri bo'lib qolmoqda.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda sog'liqni saqlash xizmatlarining sifat ko'rsatkichlari va iqtisodiy samaradorlik o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlash hamda tahlil qilish maqsad qilingan. Tadqiqot metodologiyasi ilmiy asoslangan yondashuvlar, statistik tahlil usullari va sifatni baholash mezonlari asosida shakllantirildi.

Tadqiqotda miqdoriy va sifatli usullar uyg'unlikda qo'llanildi. Miqdoriy tahlil sifat ko'rsatkichlari va iqtisodiy samaradorlikni o'lchash uchun statistik ma'lumotlar bazasiga tayanadi, sifatli yondashuv esa xizmat ko'rsatish jarayonidagi sifat omillarini chuqurroq tushunishga yordam beradi.

Statistik tahlil uchun sog'liqni saqlash muassasalaridan olingan ma'lumotlar: bemorlar soni, yotqizish muddati, qayta murojaatlar, bemorlarning qoniqish darajasi, moliyaviy ko'rsatkichlar (xarajatlar, budget sarflari) o'rganildi.

Sifatli tahlil doirasida esa sog'liqni saqlash xodimlari va bemorlar bilan intervyular, so'rovnomalar o'tkazildi. Bu usul xizmat sifatining sub'ektiv jihatlarini va iqtisodiy samaradorlikka ta'sir qiluvchi omillarni aniqlash imkonini berdi.

Tadqiqot uchun ma'lumotlar quyidagi manbalardan yig'ildi:

O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi statistik hisobotlari;

Tibbiyot muassasalarining ichki monitoring natijalari;

Bemorlarga qaratilgan so'rovnomalar va intervyular natijalari;

Moliyaviy va iqtisodiy tahlil uchun byudjet xarajatlari va moliyaviy hisobotlar.⁴

Tadqiqot O'zbekiston sog'liqni saqlash tizimidagi bir nechta tibbiyot muassasalarida olib borildi. Namuna sifatida 10 ta klinika va shifoxona tanlandi, ularning faoliyati davomida 2022–2024 yillar oralig'ida yig'ilgan ko'rsatkichlar tahlil qilindi. Shu bilan birga, 200 dan ortiq bemor va 50 dan ziyod sog'liqni saqlash xodimlari orasida so'rovnomalar va intervyular o'tkazildi. Tadqiqot ma'lumotlari faqat O'zbekiston sog'liqni saqlash tizimining ayrim hududlari va tibbiyot muassasalariga asoslangan. Shu bois natijalarni boshqa mamlakatlar yoki tizimlarga bevosita umumshtirish ehtimoli cheklangan. Shuningdek, sifat ko'rsatkichlari bahosidagi sub'ektivlik va ma'lumotlarning to'liqligi masalalari mavjud bo'lishi mumkin.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot davomida yig'ilgan ma'lumotlar asosida sog'liqni saqlash xizmatlari sifatining baholash ko'rsatkichlari va ularning iqtisodiy samaradorlik bilan o'zaro bog'liqligi batafsil tahlil qilindi. Olingan natijalar sifat ko'rsatkichlari va iqtisodiy parametrlardagi sezilarli o'zgarishlar o'rtasidagi statistik va amaliy munosabatlarni ochib berdi.

Tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, tadqiqot o'tkazilgan tibbiyot muassasalarining ko'pchiligida strukturaviy va jarayon ko'rsatkichlari ijobiy o'zgarishlarga ega. Xususan, tibbiy xodimlarning malaka darajasi va zamonaviy texnika bilan jihozlanganlik darajasi o'rtacha 85% ga yetdi, bu xizmat sifatining asosiy ko'rsatkichlaridan biridir. Bemorlarni qabul qilish va tashxis qo'yish jarayonlari soddalashtirilgan va samarali bo'lib, bu bemorlarning qoniqish darajasining o'sishiga olib keldi.

Bemorlarning qoniqishi so'rovnomalari natijasida xizmatdan umumiy mamnunlik darajasi 78% atrofida aniqlanib, bu sifatni oshirish uchun hali ham imkoniyatlar mavjudligini ko'rsatdi. Qayta yotqizilish darajasi esa o'rtacha 12% bo'lib, bu ko'rsatkich sog'liqni saqlash xizmatlarining natijaviy samaradorligini baholashda muhim omil sanaladi.

Moliyaviy tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, tadqiqot qamrab olgan muassasalarda bir bemorga to'g'ri keluvchi o'rtacha xarajatlar 2022 yildan 2024 yilgacha 10% ga kamaydi. Bu esa resurslardan samarali foydalanish va xizmat ko'rsatish jarayonlarini optimallashtirish bilan bog'liq. Budget xarajatlarning kamayishi, ayniqsa, jarayonlar va tashkiliy sohalarida amalga oshirilgan islohotlar natijasidir.

Bundan tashqari, xizmat ko'rsatish qiymati va moliyaviy samaradorlik ko'rsatkichlari o'rtasida ijobiy korrelyatsiya aniqlanib, sifat ko'rsatkichlarining yaxshilanishi moliyaviy ko'rsatkichlarga ham ijobiy ta'sir ko'rsatishini isbotladi.

Korrelyatsion tahlil natijalari sifat ko'rsatkichlari (bemor qoniqishi, qayta yotqizilish darajasi, tashxis va davolash sifatining bahosi) bilan iqtisodiy ko'rsatkichlar (xarajatlar kamayishi, moliyaviy samaradorlik) o'rtasida

⁴ A.O.Arah, S.N.Klazinga, D.M.Delnoij, A.H.Asbroek, T.Custers (2003). Conceptual frameworks for health systems performance: A quest for effectiveness, quality, and efficiency. International Journal for Quality in Health Care, 15(5), 377–398.



o'rtacha darajadagi ijobiy bog'liqlikni ko'rsatdi ($r = 0.63$, $p < 0.05$). Bu shuni anglatadiki, sog'liqni saqlash xizmatlarining sifatini oshirish iqtisodiy samaradorlikni yaxshilashga olib keladi.

Regressiya tahlili natijasida esa sifat ko'rsatkichlari iqtisodiy samaradorlikning taxminan 40% ni tushuntirishi aniqlanib, bu sohada olib boriladigan strategik islohotlarning samaradorligini ilmiy asosda ko'rsatdi.

Sifatli intervyu va so'rovnoma asosida olingan ma'lumotlar sifat ko'rsatkichlari va iqtisodiy samaradorlik o'rtasidagi bog'liqlikni tushuntirishga yordam berdi. Tibbiyot xodimlari va bemorlarning fikriga ko'ra, xizmat sifatining yaxshilanishi natijasida bemorlar davolanish jarayoniga ko'proq ishonch bilan yondashadi, bu esa davolash samaradorligini oshiradi va shu bilan birga tizim xarajatlarini kamaytiradi.

Shuningdek, sifatni baholash tizimlarining samarali ishlashi muassasalardagi boshqaruv jarayonlarini yaxshilashga, xodimlar motivatsiyasini oshirishga hamda resurslarning tejamkor ishlatilishiga olib keladi.

Tahlil va natijalar shuni ko'rsatdiki, sog'liqni saqlash xizmatlarining sifat ko'rsatkichlari va iqtisodiy samaradorlik o'rtasida mustahkam va ijobiy bog'liqlik mavjud. Sifatni yaxshilashga qaratilgan chora-tadbirlar iqtisodiy samaradorlikni oshirishga yordam beradi va sog'liqni saqlash tizimining barqaror rivojlanishini ta'minlaydi. Ushbu natijalar sog'liqni saqlash tizimini boshqarish va isloh qilish jarayonlarida sifat va iqtisodiy samaradorlikni integratsiyalashgan tarzda yondashishni talab qiladi. Quyidagi jadvalda sog'liqni saqlash xizmatlari sifatini baholash ko'rsatkichlari va iqtisodiy samaradorlik o'zgaruvchilari o'rtasidagi korrelyatsion bog'liqlik ko'rsatkichlari keltirilgan. Tahlilda Pearson korrelyatsiya koeffitsiyenti qo'llanildi va p-qiyamatlar statistik ahamiyatlilik uchun taqdim etildi.

1-jadval. Sog'liqni saqlash xizmatlari sifatini baholash ko'rsatkichlari va iqtisodiy samaradorlik o'zgaruvchilari o'rtasidagi korrelyatsion bog'liqlik tahlili⁵

T/r	Ko'rsatkichlar	1	2	3	4	5	Izoh
1	Bemorlarning qoniqish darajasi	1					Sifat ko'rsatkichlaridan biri
2	Qayta yotqizilish darajasi (%)	-0.58** (0.002)	1				Qayta yotqizilish past bo'lsa, sifat yuqori
3	Tashxis va davolash sifatining bahosi	0.67** (0.001)	-0.55** (0.003)	1			Jarayon sifat ko'rsatkichi
4	Bir bemorga to'g'ri keluvchi xarajatlar (ming so'm)	0.45* (0.020)	-0.42* (0.030)	0.50* (0.015)	1		Iqtisodiy ko'rsatkich
5	Moliyaviy samaradorlik koeffitsienti	0.63** (0.005)	-0.57** (0.004)	0.61** (0.002)	0.72** (0.001)	1	Iqtisodiy samaradorlik

Izoh: r – Pearson korrelyatsiya koeffitsiyenti, p – ahamiyatlilik darajasi, ** $p < 0.01$ darajada ahamiyatli, $p < 0.05$ darajada ahamiyatli.

Yuqorida keltirilgan jadvalni tahlil natijasida quyidagi holatlarni aniqlash mumkin:

Bemorlarning qoniqish darajasi va boshqa sifat ko'rsatkichlari o'rtasida kuchli ijobiy korrelyatsiya mavjud ($r = 0.67$, $p < 0.01$), bu sifatni oshirish bilan bemorlarning umumiy qoniqishi ortishini ko'rsatadi.

Qayta yotqizilish darajasi salbiy korrelyatsiya ko'rsatmoqda (masalan, bemorlarning qoniqishi bilan $r = -0.58$, $p < 0.01$), bu qayta yotqizilish darajasi pasaysa, xizmat sifati oshishini anglatadi.

Iqtisodiy ko'rsatkichlar bilan sifat ko'rsatkichlari o'rtasida ham o'rtacha darajada ijobiy bog'lanish aniqlandi (masalan, moliyaviy samaradorlik va tashxis-davolash sifati $r = 0.61$, $p < 0.01$), bu sifat oshgani sari iqtisodiy samaradorlik ham yaxshilanayotganini tasdiqlaydi.

Bir bemorga to'g'ri keluvchi xarajatlar va moliyaviy samaradorlik o'rtasida ham kuchli ijobiy bog'lanish ($r = 0.72$, $p < 0.01$) kuzatildi, bu resurslar tejamkorligi va samarali boshqaruv bilan izohlanadi.

5 Statistik ma'lumotlar asosida muallif ishlanmasi



Ushbu korrelyatsion tahlil natijalari sog'liqni saqlash tizimida sifat ko'rsatkichlari va iqtisodiy samaradorlik o'rtasidagi uzviy va o'zaro bog'liq munosabatlarni aniq ko'rsatib beradi. Tadqiqot davomida aniqlangan bog'liqliklar asosida tizimni yaxshilash va samaradorlikni oshirish uchun sifatni oshirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar ishlab chiqish tavsiya etiladi. Tadqiqotda sifat ko'rsatkichlari iqtisodiy samaradorlikka ta'sirini baholash uchun ko'p o'zgaruvchili chiziqli regressiya modeli qo'llanildi. Modelda iqtisodiy samaradorlik (y) mustaqil o'zgaruvchi sifatida olinib, sifat ko'rsatkichlari mustaqil o'zgaruvchilar sifatida kiritildi. Sog'liqni saqlash tizimida resurslardan samarali foydalanishni tahlil qilishda Regressiya modeli quyidagi formula orqali hisoblanadi:

$$Y = \beta_0 + \beta_1 X_1 + \beta_2 X_2 + \beta_3 X_3 + \varepsilon$$

Bu yerda:

Y — iqtisodiy samaradorlik koeffitsienti,

X_1 — bemorlarning qoniqish darajasi (%),

X_2 — qayta yotqizilish darajasi (%),

X_3 — tashxis va davolash sifatining bahosi (ball bilan).

2-jadval. Sog'liqni saqlash xizmatlarida sifat ko'rsatkichlari va iqtisodiy samaradorlik o'rtasidagi ko'p o'zgaruvchili regressiya tahlili natijalari⁶

T/r	Mustaqil o'zgaruvchi	Koeffitsiyent	Standart xato	t-statistika	p-qiyamat	Izoh
1	Intersept (β_0)	0.245	0.067	3.66	0.001**	Modeldagi boshlang'ich nuqta
2	Bemorlarning qoniqish darajasi (X_1)	0.028	0.007	4.00	0.000**	Ijobiy ta'sir, ahamiyatli
3	Qayta yotqizilish darajasi (X_2)	-0.021	0.009	-2.33	0.022*	Salbiy ta'sir, ahamiyatli
4	Tashxis va davolash sifatining bahosi (X_3)	0.034	0.008	4.25	0.000**	Kuchli ijobiy ta'sir

T/r	Model ko'rsatkichlari	Qiymat	Izoh
1	R^2 (Determinatsiya koeffitsiyenti)	0.41	Model tomonidan tushuntirilgan dispersiya foizi
2	F-statistika	15.72	Model ahamiyati ($p < 0.001$)
3	Namuna hajmi (N)	60	Tadqiqotga olingan kuzatuvlar soni

⁶ Statistik ma'lumotlar asosida muallif tomonidan ishlab chiqildi



Regressiya tahlili natijalari sog'liqni saqlash xizmatlari sifat ko'rsatkichlari (bemorlardan qoniqish, qayta yotqizilish darajasi, tashxis va davolash sifati) iqtisodiy samaradorlikni sezilarli darajada ta'sir qilishini isbotladi. Ushbu natijalar sog'liqni saqlash tizimida sifatni yaxshilashga yo'naltirilgan strategiyalar ishlab chiqishda iqtisodiy samaradorlikni oshirish uchun muhim asos bo'lib xizmat qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Ushbu tadqiqot sog'liqni saqlash tizimida xizmatlar sifati va iqtisodiy samaradorlik o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni aniqlash va baholashga qaratildi. Tahlillar natijasi shuni ko'rsatdiki, xizmat sifati tizimli va puxta baholangan taqdirda u nafaqat bemorlarning sog'ayish darajasini oshiradi, balki tizim resurslarining tejamli va samarali ishlatilishini ta'minlaydi. Korrelyatsion va regressiya tahlillari natijalariga ko'ra:

Bemorlarning qoniqish darajasi, tashxis va davolash sifatining bahosi iqtisodiy samaradorlikka ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda;

Qayta yotqizilish darajasi esa iqtisodiy natijalarga salbiy ta'sir qilmoqda;

Regressiya modeli orqali xizmat sifati o'zgaruvchilari iqtisodiy samaradorlikdagi o'zgarishlarning 41% ini izohlab bera olishi aniqlangan;

Yuqori sifatli xizmatlar bilan birga xarajatlarning kamayishi, xodimlarning motivatsiyasi oshishi va bemor ishonchi mustahkamlanishi kabi jihatlar tizim barqarorligining asosiy omillaridan ekanligi tasdiqlandi.

Shu bilan birga, tibbiyot muassasalarida sifatni baholash indikatorlari hali ham to'liq avtomatlashtirilmagan, xizmat ko'rsatishdagi ayrim sifat jihatlarini (masalan, insoniy yondashuv, bemor bilan kommunikatsiya sifati) statistik ko'rsatkichlar orqali yetarlicha ifodalanmayapti. Bu esa ushbu sohada chuqurroq sifat tahliliga ehtiyoj borligini ko'rsatadi va shu orqali quyidagi takliflarni qo'llash lozimligini namoyon etadi:

Birinchidan, sog'liqni saqlash tizimida xizmat sifati bo'yicha yagona va institutsional yondashuvni shakllantirish zarur. Har bir tibbiyot muassasasida xizmat sifatini baholovchi ichki audit va monitoring tizimini joriy etish va sifatni o'lchashda xalqaro standartlarga mos indikatorlar asosida baholash mezonlarini ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish lozim.

Ikkinchidan, bemorlarning qoniqish darajasini oshirish bo'yicha tizimli ishlar olib borilishi shart. Xususan, tibbiy xizmat ko'rsatishda insoniylik, etik yondashuv va empatiyani kuchaytirish va elektron so'rov tizimlari orqali bemor fikrlarini doimiy ravishda o'rganish va xizmat sifatini shunga asoslangan holda takomillashtirish kerak.

Uchinchidan, qayta yotqizilish holatlarini kamaytirish orqali xizmat sifatini va iqtisodiy samaradorlikni oshirish mumkin. Buning uchun, kasalliklarning erta aniqlanishi, profilaktika va reabilitatsiya xizmatlarini kengaytirish va ambulator kuzatuv va uy sharoitida davolash xizmatlarini rivojlantirish zarur.

To'rtinchidan, sog'liqni saqlash sohasida xizmat sifati va iqtisodiy samaradorlikni birlashtirib tahlil qilish imkonini beruvchi raqamli monitoring tizimini yaratish muhim. Bu tizim har bir xizmat turi bo'yicha xarajat-sifat-natija uchligini baholashga asoslanishi va qaror qabul qiluvchilar uchun vizual va real vaqtli ko'rsatkichlar panelini ta'minlashi lozim.

Beshinchidan, tibbiyot xodimlarining xizmat sifati va samaradorlikka ta'sirini inobatga olgan holda sifat menejmenti, sog'liqni saqlash iqtisodiyoti, mijozlar bilan muloqot bo'yicha malaka oshirish va qayta tayyorlash kurslarini tashkil etish hamda xodimlarni natijaga yo'naltirilgan baholash tizimi asosida rag'batlantirish taklif etiladi.

Oltinchidan, xalqaro tajriba va ilg'or amaliyotlarni o'rganib, milliy sog'liqni saqlash tizimiga moslashtirish kerak. Jumladan, OECD, WHO, JCI va boshqa tashkilotlarning sog'liqni saqlash sifati bo'yicha yondashuvlari chuqur tahlil qilinib, milliy model bilan integratsiya qilinishi zarur.

Ushbu takliflar sog'liqni saqlash xizmatlarining sifatini oshirish orqali tizimda iqtisodiy samaradorlikka erishishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, xizmat sifati — nafaqat bemorlar salomatligi, balki sog'liqni saqlash tizimining moliyaviy barqarorligi, xodimlar motivatsiyasi va umuman, jamiyat ishonchining asosiy kafolati sifatida qaralishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 – yil 11 – maydagi “Xizmatlar sohasini jadal rivojlantirish chora – tadbirlari” PQ – 5113 son Qarori.
2. “Aholi bandlelini ta'minlash bo'yicha olib borilayotgan ishlar natijadorligi va samaradorligini oshirishda mahalliy ijro hokimiyati va iqtisodiy kompleksning hududiy organlari rahbarlarining shaxsiy mas'uliyatini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi 2017 yil 6 may PQ-2960 son Qarori.
3. O'zbekiston Respublikasining “Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida”gi Qonuni. 2000 yil 25 mayda qabul qilingan. 2012 yilda yangi tahriri qabul qilingan.
4. O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi. (2023). Milliy sog'liqni saqlash tizimida sifatni baholash indikatorlari bo'yicha metodik qo'llanma. Toshkent: SSV nashriyoti.



5. A.Donabedian (1988). The quality of care: How can it be assessed? JAMA, 260(12), 1743–1748. <https://doi.org/10.1001/jama.1988.03410120089033>
6. World Health Organization (WHO). (2018). Delivering quality health services: A global imperative for universal health coverage. Geneva: WHO, OECD, and The World Bank.
7. OECD. (2020). Health at a Glance 2020: OECD Indicators. OECD Publishing, Paris. <https://doi.org/10.1787/4dd50c09-en>
8. A.O.Arah, S.N.Klazinga, D.M.Delnoij, A.H.Asbroek, T.Custers (2003). Conceptual frameworks for health systems performance: A quest for effectiveness, quality, and efficiency. International Journal for Quality in Health Care, 15(5), 377–398.
9. M.E.Porter (2010). What is value in health care? New England Journal of Medicine, 363(26), 2477–2481.
10. www.lex.uz – O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi portali.
11. www.stat.uz – O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi sayti.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 10

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
